Beshinchidan, ijtimoiy tarmoqlarda destruktiv g‘oyalarning mohiyatini ochib berishga mo‘ljallangan sahifalarni ko‘paytirish lozim. Ijtimoiy tarmoqlarda ijtimoiy ziddiyatlar va beqarorlikni kuchaytirishga qaratilgan ekstremizm, radikalizm, millatchilik, diniy mutaassiblik kabi g‘oyalarning tarqalayotgani, targ‘ib etilayotgani ham yorqin ko‘zga tashlanmoqda. Agar bunday tendensiyalarga qarshi yetarlicha tushuntirish ishlari olib borilmasa, ushbu destruktiv g‘oyalarning jamoatchilik fikriga salbiy ta’siri kuchayib boraveradi, ularning iskanjasiga tushgan kishilar soni ham ortaveradi. Shu bois ijtimoiy tarmoqlarda destruktiv g‘oyalar mohiyatini ochib berishga mo‘ljallangan sahifalarni ko‘paytirish, jamiyatga bu tahdidlarning salbiy oqibatlarini yetkazish va odamlarni ulardan himoya qilish benihoya muhimdir.

Xulosa. Xulosa qiladigan bo‘lsak, zamonaviy jamiyatda kishilar ongi va faoliyatini tobora faollashib borayotgan destruktiv zamonaviy targ‘ibot ta’siridan muhofazalash borasidagi ikkinchi vazifa jamoatchilik fikrini sog‘lomlashtirish bilan bog‘liq. Buning uchun mazkur vazifa ijrosiga ijtimoiy tarmoqlarning pozitiv imkoniyatlari safarbar qilinmog‘i, bu imkoniyatlarni realizatsiya qilishda qo‘l keladigan choralar amalga oshirilmog‘i darkor.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

(1). Boyd D.M., Ellison, N.B. Social network sites: Definition, history, and scholarship. Journal of Computer-Mediated Communication, 2007, № 1, p. 210–230.

(2). Kaplan A.M., Haenlein M. Users of the world, unite! The challenges and opportunities of social media. Business Horizons, 2010, № 1, p. 59–68.

(3). Newman N., Fletcher R., Kalogeropoulos A., Nielsen R.K. Reuters Institute Digital News Report. 2019, amic.media/media/files/file_352_2028. pdf.

(4). Wellman B., Haase A.Q., Witte, J., Hampton K. Does the internet increase, decrease, or supplement social capital?//American Behavioral Scientist, 2001, № 3, p. 436–455.

(5). Selwyn N. Social media in higher education. The Europa World of Learning, 2012, №, 2, p. 1–9.

(6). Kietzmann J.H., Hermkens K., McCarthy I.P., Silvestre B.S. Social media? Get serious! Understanding the functional building blocks of social media. Business Horizons, 2011, №3, p. 241–251.

(7). Fardouly J., Diedrichs P.C., Vartanian L.R., Halliwell, E. Social comparisons on social media. The impact of Facebook on young women's body image concerns. Body Image, 2015, № 13, p. 38–45.

(8). Patchin J.W., Hinduja S. Cyberbullying and self-esteem. Journal of School Health, 2010, №12, p. 614–621.

Jamolov Davronbek Baxtiyor o‘g‘li (Axborot Texnologiyalari va menejment universiteti “Tarix” kafedrasi dotsenti (PhD); e-mail: jamolovdavronbek4@gmail.com)

MILLIY QADRIYATLARNI ASRAB-AVAYLASHDA TA’SIR ETUVCHI OMILLAR

Annotatsiya. *Ushbu maqolada milliy qadriyatlar millat vakillarining ongi va faoliyatini, ularning turli jarayon va voqealarga munosabatini, ehtiyoj va manfaatlarini, maqsad va ideallarini shakllantiruvchi qudratli manbaaligi haqida ma’lumot berilgan. Inson uchun Vatan tabiati bilan bog‘liq ayrim xususiyatlar, hodisalar qadriyat darajasiga ko‘tarilishi mumkinligini aytib o‘tadigan bo‘lsak, ushbu qadriyatlar vatanparvarlik tuyg‘ularini qaror toptiruvchi omil vazifasini ham o‘taydi. Aynan shu boisdan ko‘plab shoirlar Vatanga bo‘lgan muhabbatlarini ifodalashda tabiat tasviridan foydalanganlar.*

Kalit so‘zlar: *shaxsning shakllanishi, milliy an’ana, milliy tarbiya, milliy madaniyat, jamiyat, axloq, qadriyatlar, milliy qadriyatlar, milliy ehtiyoj.*

Джамалов Давронбек Бахтияр ogli (Университет информационных технологий и менеджмента, доцент кафедры “Истории” (PhD); e-mail: jamolovdavronbek4@gmail.com)

ФАКТОРЫ, ВЛИЯЮЩИЕ НА СОХРАНЕНИЕ НАЦИОНАЛЬНЫХ ЦЕННОСТЕЙ

Аннотация. *В данной статье представлена информация о мощном источнике национальных ценностей, формирующих сознание и деятельность представителей нации, их отношение к различным процессам и событиям, потребностям и интересам, целям и идеалам. Если упомянуть, что некоторые особенности и события, связанные с природой Родины, могут быть подняты на уровень ценности для человека, то эти ценности служат и фактором, определяющим патриотические чувства. Именно поэтому многие поэты использовали образ природы для выражения своей любви к Родине.*

Ключевые слова: *формирование личности, национальная традиция, национальное образование, национальная культура, общество, этика, ценности, национальные ценности, национальные потребности.*

Jamalov Davronbek Bakhtiyar ugli (University of Information Technologies and Management Associate Professor of History Department, (PhD); e-mail: jamolovdavronbek4@gmail.com)

FACTORS INFLUENCING THE PRESERVATION OF NATIONAL VALUES

Annotation. *This article provides information about the powerful source of national values that shape the consciousness and activities of the representatives of the nation, their attitude to various processes and events, needs and interests, goals and ideals. If we mention that some features and events related to the nature of the Motherland can be raised to the level of value for a person, these values also serve as a factor that determines patriotic feelings. That is why many poets used the image of nature to express their love for the Motherland.*

Keywords: *personality formation, national tradition, national education, national culture, society, ethics, values, national values, national needs.*

Kirish (Introduction). Qadriyatlar vatan-parvarlik tuyg'ularini qaror toptiruvchi omil vazifasini ham o'taydi. Aynan shu boisdan ko'plab shoirlar Vatanga bo'lgan muhabbatlarini ifodalashda tabiat tasviridan foydalanadilar. Jumladan, To'ra Sulaymon Vatan tabiatini shunday tasvirlaydi:

Bahor kelsa boshlanur bog'da bulbul xonishi,
Sa'va, qumri nag'masi, suralay tovlanishi.
Qirlarda lola sayli, qishloqlarda yil boshi,
To'xtagay tabiatdan haqqushlar zorlanishi –
Bahor ketma mening bog'imdan. [4]

Binobarin, qadriyat maqomiga yetgan va Vatan tabiati bilan bog'liq xususiyatlar, hodisalar, yodgorliklarning asrab-avaylanishi nafaqat millat turmushi, balki uning vakillari dunyoqarashining shakllanishi uchun muhim ahamiyatga egadir.

Millat vakillari ongi va faoliyatining shakllanishida milliy qadriyat darajasiga ko'tarilgan tarixiy jarayon va voqealar ham bag'oyat ahamiyatli. Masalan, Temuriylar davrida yuz bergan ijtimoiy-siyosiy jarayonlar, iqtisodiy yuksalish omillari, madaniy taraqqiyot o'zbek xalqi uchun allaqachonlar qadriyat maqomini olgan. Millat vakillari ushbu tarixiy jarayonlarni mamlakatimizdagi Ikkinchi renessans davrining ifodasi sifatida qadrlaydilar. Bu qadriyatlar o'zbek xalqining shonli tarixini, uning potensial imkoniyatlarini, orzu-umidlarini tuyish imkonini beradi. Demak, tarixiy jarayon va voqealar bilan bog'liq milliy qadriyatlarni asrab-avaylash orqali millatning ijtimoiy-tarixiy munosabatini qaror toptirish, uning ruhiyatini shakllantirish, ijtimoiy kayfiyati va millatparvarlik tuyg'ularini tarbiyalash mumkin bo'ladi.

Milliy qadriyat darajasiga ko'tarilgan orzu-umid va ideallarning ham alohida qimmati mavjud. Tarixiy taraqqiyot davomida bunday orzu-umid va ideallar xalqni buyuk ishlar sari undab kelgani haqida ko'p gapirilgan. Bugungi kunda Yangi O'zbekiston orzusi ana shunday ideal darajasiga ko'tarilmoqda. "Yangi O'zbekiston – barchamizning ezgu orzumiz, mehnatkash, tinchliksevar xalqimizning orzusi! Unda xalqimizning azaliy umid-niyatlari, yuksalish sari intilishlari o'ziga xos tarzda aks etmoqda" [5; 15-bet.]. Ushbu orzuning qimmati shundaki, u butun O'zbekistonliklarni yagona g'oya atrofida birlashtirishga, ularni aniq maqsad sari safarbar etishga xizmat qiladi. Yangi milliy qadriyat darajasiga yetayotgan ushbu orzuni asrab-avaylash zaruriyati ham shu-ning bilan bog'liq.

Tadqiqot metodologiyasi (Research Methodology). Globallashuv tendensiyasining milliy qadriyatlarga salbiy ta'sirini kamaytirishda quyidagi tavsiyalarga ham e'tiborni qaratish zarur, deb hisoblaymiz.

▪Jamiyatdagi aksiologik vaziyatni monitoring qilib boradigan, xususan, milliy qadriyatlarning real jamiyatdagi mavqeyini aniqlash, kishilarning milliy qadriyatlarga munosabatidagi o'zgarishlarni tahlil qilish bilan shug'ullanadigan yaxlit ijtimoiy tizimni shakllantirish zarur.

Bu tizimning vujudga kelishi nafaqat milliy qadriyatlar nufuzini oshiradi, balki pirovardida milliy madaniyatdagi milliylik elementlarining saqlanishiga ham zamin yaratadi.

▪Jamiyat a'zolarining aksiologik tarbiyasini tizimli ravishda yo'lga qo'yishga xizmat qiladigan normativ-huquqiy hujjatlarni, o'quv-uslubiy va ilmiy materiallar majmuini takomillashtirish zarur.

Aksiologik tarbiyaning ilmiy asosda, tizimli, uzluksiz va kompleks holda tashkil etilishi fuqarolarning qadriyatlar to'g'risidagi tasavvurlarini kengaytiradi, aksiologik ongini yuksaltiradi, aksiologik faoliyatini jamiyat ehtiyoj va manfaatlariga moslashtiradi.

▪Milliy qadriyatlarni targ'ib va tashviq qilishning zamonaviy texnologiyalarini ishlab chiqish zarur.

Bu texnologiyalarni ishlab chiqayotganda va amaliyotga tatbiq etayotganda aksiologik targ'ibot va tashviqot ishlari mamlakatdagi o'quv dargohlarida amalga oshirilayotgan tadbirlar bilan cheklanib qolayotgani, turli korxona va tashkilotlardagi aksiologik targ'ibot yil sayin zaiflashib borayotgani, nodavlat tashki-

lotlari, xususiy firma va korxonalarda esa bunday faoliyat mutlaqo yo‘lga qo‘yilmaganiga e’tibor berish zarur bo‘ladi.

Milliy qadriyatlarga salbiy ta’sirini tasvirlash uchun shularning o‘zi ham kifoya qiladi, deb o‘ylaymiz. Aynan ana shunday vaziyat O‘zbekiston rahbari va hukumatining milliy qadriyatlarga bo‘lgan siyosiy yondashuvini ularga oqilona munosabatni shakllantirish, jamiyatdagi mavqeini mustahkamlash vazifasi bilan bog‘ladi. “Diniy ekstremizm, terrorizm, giyohvandlik, odam savdosi, noqonuniy migrasiya, “ommaviy madaniyat” kabi xavf-xatarlar kuchayib, odamzot asrlar davomida amal qilib kelgan e’tiqodlar, oilaviy qadriyatlarga putur etkazmoqda”, deb ta’kidlaydi davlat rahbari [6;505-bet.]

Yuzaga kelgan vaziyatda milliy qadriyatlarni rivojlantirish, ularga pragmatik va oqilona munosabatni shakllantirish, shuningdek, “yuksak ma’naviyatli, zamonaviy bilim va kasb-hunarlarga, o‘z mustaqil fikriga ega bo‘lgan yoshlarni milliy va umuminsoniy qadriyatlar ruhida tarbiyalash biz uchun eng muhim masalalardan biridir” [6; 29-bet.]

Tahlil va natijalar (Analysis and results). G‘arbda inson huquqlarini mutlaqlashtirish, barcha ijtimoiy jarayonlarni, inson faoliyati bilan bog‘liq barcha holatlarni nuqul huquqlar nuqtai-nazaridan tahlil qilish odati ildiz otmoqda. Jahondagi globallashuv tendensiyasi oqibatida huquq va majburiyatlar haqidagi bunday g‘arbona tasavvurlar jahonning turli mintaqalariga yoyilmoqda, targ‘ib va tashviq etilmoqda. Oqibatda ko‘plab mamlakatlarda, jumladan O‘zbekistonda ham har qanday ijtimoiy voqeani huquqlar bilan o‘lchash amaliyoti paydo bo‘layapti. Masalan, hamma jamiyatlarda shaxsni majburiy mehnatga jalb qilish inson haq-huquqlarining poymol etilishi, og‘ir ijtimoiy oqibatlarga olib keluvchi omil sifatida e’tirof qilinadi. Bu, albatta, o‘rinli nuqtayi nazar.

Kishilarning majburiy mehnatga jalb qilinishi qanday oqibatlarga olib kelishini bizning mamlakatimizda ayniqsa yaxshi tasavvur qiladilar. Lekin, fikrimizcha, har qanday majburiy mehnat ham inson huquqlarining buzilishi bo‘lavermaydi. Mehnat tarbiyasi doirasida tarbiyalanuvchida mehnat ko‘nikmalarini shakllantirish niyatida amalga oshirilgan majburiy mehnatni shunday baholash mumkinmi? Ish joyini sanitariya-gigiyena qoidalariga moslashtirish maqsadida bajarilgan majburiy mehnatni shunday baholash mumkinmi? Afsuski, keyingi yillarda jamiyat, mehnat jamoasi manfaatlari yo‘lida bajarilgan bunday mehnatni ham inson huquqlarining buzilishi sifatida baholash kayfiyati vujudga kelmoqda va natijalari globallashuv sharoitida o‘zbek milliy madaniyati komponentlaridagi o‘zgarishlarni tizimli tadqiq qilishda nazariy asos va ilmiy manba vazifasini o‘taydi.

Xulosa va takliflar (Conclusion/Recommendations). Xullas, o‘zbek milliy madaniyatining o‘ziga xos jihatlarini asrash zaruriyati milliy an'ana va qadriyatlarga bo‘lgan e’tiborni kuchaytirishni taqozo qilmoqda. Chunki globallashuv sharoitida an’analarning ijtimoiy funksiyalarini milliy manfaatlarga moslashtirmasdan, milliy qadriyatlarning jamiyatdagi mavqeini mustahkamlamasdan turib, madaniyatning milliy xarakterini saqlab qolib bo‘lmaydi. Buning uchun milliy an’analarning asl mazmunini ifodalab beradigan risolalar, albomlar, ko‘rsatuvlar, videomateriallarni ko‘paytirish, milliy an’analarining tarixan ustuvor bo‘lgan, pragmatik shakllarini targ‘ib va tashviq qilishni kuchaytirish, mavzuga doir ilmiy izlanishlarni maxsus grantlar bilan ta’minlash, “Milliy an’analar” rukni ostida sof ilmiy pozisiyadan yozilgan risolalar majmuyini yaratish, milliy an’analarga hurmat muhitini yanada mustahkamlashda ijtimoiy fanlarning tarbiyaviy imkoniyatlaridan kengroq foydalanish lozim bo‘ladi. Shuningdek, aksiologik vaziyat monitoringini yo‘lga qo‘yish, tizimli aksiologik tarbiyani shakllantirish, milliy qadriyatlarni targ‘ib va tashviq qilishning zamonaviy texnologiyalarini ishlab chiqish zaruriyati ham mavjud.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati (References):

(1). Jamolov, D.B. (2023). The Main Part of Uzbek National Culture Features and Functions. Procedia of Philosophical and Pedagogical Sciences, 2(5), p. 49–56.

(2). Жамолов, Д.Б. О. (2020). Национальная культура и идентичность в контексте глобализации. Досягнення і перспективи науки, освіти та виробництва, 2020, с. 108.

(3). Жамолов, Д.Б. Проблемы сохранения национальной культуры в условиях глобализации. “Zamonaviy fan va ta’lim-tarbiya: muammo, yechim, natija”. Respublika miqiyosidagi ilmiy-amaliy, onlayn konferensiya materiallari. 5.12.2020, c. 16.

(4). [1; 2 b.] Sulaymon T. Gul bir yon, chaman bir yon. T., “Cho‘lpon”, 1996, 2-bet.

(5). [2; 3 b.] Mirziyoyev Sh.M. Yangi O‘zbekiston strategiyasi. T., “O‘zbekiston”, 2021, 15-bet.

(6). [3; 4 b.] Mirziyoyev Sh.M. Jismoniy va ma’naviy barkamol yoshlar – bugungi va ertangi kunimizning hal qiluvchi kuchidir. Milliy taraqqiyot yo‘limizni qat’iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko‘taramiz. 1-j, T., “O‘zbekiston”, 2017, 505-bet.

(7). [4; 4 b.] Mirziyoyev Sh.M. Demokratik islohotlarni chuqurlashtirish, barqaror rivojlanishni ta'minlash – xalqimiz uchun munosib hayot darajasini yaratishning kafolatidir. Milliy taraqqiyot yo‘limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko‘taramiz. 1-j, T., “O‘zbekiston”, 2017, 88–89-betlar.

(8). [5; 5 b.] Mirziyoyev Sh.M. Ta’lim va ma’rifat – tinchlik va bunyodkorlik sari yo‘l. Milliy taraqqiyot yo‘limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko‘taramiz. 1-j, T., “O‘zbekiston”, 2017, 29-bet.

Ochilov Sarvar Safayevich (O‘zbekiston Milliy universiteti mustaqil tadqiqotchisi; sarvar.ochilov@mail.ru)

HAZRAT ALI SHAXSINING SHAKLLANISHIDA IJTIMOIY-MA’NAVIY MUHIT

Annotatsiya. *Ushbu maqolada Hazrat Ali shaxsining shakllanishida ijtimoiy-ma’naviy muhitning ahamiyati ko‘rsatib berilgan. Unda Muhammad payg‘ambarning tarbiyasi va Hazrat Ali yashagan islomiy muhit ta’sirida uning g‘oyatda oqil, insonparvar, do‘stga sadoqatli, diyonatli bo‘lib shakllangani tahlil qilingan.*

Kalit so‘zlar: *Muhammad payg‘ambar, Ali ibn Abu Tolib, ijtimoiy-ma’naviy muhit, islom, tarbiya, insonparvar, adolatparvar, sadoqatli, jasurlik, fidoyilik.*

РОЛЬ СОЦИАЛЬНО-ДУХОВНОЙ СРЕДЫ В ФОРМИРОВАНИИ ЛИЧНОСТИ ХАЗРАТА ИМАМА АЛИ

Аннотация. *В данной статье показано значение социально- духовной среды в формировании личности Имама Али. В ней анализируется, что под влиянием воспитания Пророка Мухаммеда и исламской среды, в которой жил Имам Али, он сформировался как чрезвычайно умный, гуманный, набожный и преданный своим друзьям.*

Ключевые слова: *Пророк Мухаммед, Али ибн Абу Талиб, социально-духовная среда, ислам, воспитание, гуманный, справедливый, преданный, храбрость, самоотверженность.*

THE ROLE OF SOCIAL AND SPIRITUAL ENVIRONMENT IN THE FORMATION OF THE PERSONALITY OF HAZRAT IMAM ALI

Annotation. *This article shows the importance of social and spiritual environment in the formation of the personality of Imam Ali. In it, it is analyzed that under the influence of the upbringing of Prophet Muhammad and the Islamic environment in which Imam Ali lived, he became extremely intelligent, humanitarian, loyal to his friends, and pious.*

Key words: *Prophet Muhammad, Ali ibn Abu Talib, socio-spiritual environment, Islam, upbringing, humane, just, faithful, courage, selflessness.*

Kirish (Introduction). Inson qaysi ijtimoiy tuzumda yashashidan qat’i nazar, uni muayyan muhit o‘rab turadi. Boshqacha qilib aytganda, kishi tabiat ne’matlaridan bahramand bo‘ladi, odamlar va jamiyat o‘zaro munosabatda kun kechiradi. Bundan ko‘rinib turibdiki, kishilar tabiat va ijtimoiy-ma’naviy muhit ichida tirikchilik qilishadi. Demak, tabiat hodisalari, ijtimoiy tuzumning voqealari insonga u yoki bu darajada ta’sir etishi o‘z-o‘zidan ayon. Xuddi shuningdek, inson ham tabiatga va ijtimoiy tuzumga moslashadi va ta’sir etadi.

Inson davr va tarixiy tajribalar asosida o‘zi uchun muhit yaratadi. Biroq u shu muhit ta’siri ostida yashaydi, mehnat qiladi, o‘zining kelajagini yaratadi. Bu holat fikrlash ko‘lami tobora kengayib borayotgan, aql-idroki o‘sayotgan kelgusi avlod kishilarining moddiy-ma’naviy ehtiyojlari asosida o‘zgarishi mumkin.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili (Literature review). Mavzuni yoritishda bir necha avtobiografik, tarixiy adabiyotlardan foydalanilgan. Jumladan, Hazrat Alining tavallud sanasi, bolaligi, nasl-nasabi, shaxsiyati, faoliyati haqida ma’lumot berish uchun Shayx Muhammad Xuzariyning “Nur al-yaqin fi siyrat sayyid al-mursalin ma’a itmom al-vafo fi siyrat al-xulafo”, Ali Muhammad as-Sallabiyning ruscha tarjimadagi “Али ибн Абу Талиб. Четвёртый праведный халиф”, Balqiz Aladdinning “Muhammad payg‘ambar qissasi” hamda Nosiruddin Burhonuddin Rabg‘uziyning “Qisasi Rabg‘uziy” asarlariga murojaat qilingan.

Tadqiqot metodologiyasi (Research Methodology). Hazrat Ali shaxsining shakllanishida ijtimoiy-ma’naviy muhitning ta’sirini tahlil qilishda ilmiy bilishning obyektivlik, tizimlilik, qiyosiy tahlil, analiz va sintez, umumlashtirish, tarixiylik va mantiqiylik kabi usullaridan foydalanildi.

Tahlil va natijalar (Analysis and results). Ilk islom davrida, ayniqsa, islom ma’naviyati vujudga kelgan Makkada ijtimoiy-ma’naviy muhit o‘zgacha ma’no va mazmun kasb etgan. Bu, albatta, Muhammad payg‘ambarning dunyoga kelishi hamda unga Qur’oni karimning nozil bo‘lishi kabi muborak voqea-yu hodisalar bilan bevosita bog‘liqdir. Shu davrga qadar ma’naviy-mafkuraviy yo‘nalish johiliyat davri va adabiyoti ta’siri ostida edi. Bu insonlarning e’tiqodi darajasiga ko‘tarilib, ularning butun ruhiga singib kirib, yashash va turmush tarziga aylangandi.